



IJTIMOYIY TARMOQLARDA SOXTA YANGILIKLARNI ANIQLASH TEXNOLOGIYALARI: SAMARADORLIK VA MUAMMOLAR

Buranov Nozimjon Mustafoulovich

*Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti matbuot kotibi,
PhD*

Mahmudov Murodjon Alisher o'g'li

*O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti,
Xalqaro Jurnalistika fakulteti 3-bosqich talabasi*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16832627>

Annotatsiya. So'nggi yillarda ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi bilan bir qatorda u orqali tarqalayotgan soxta yangiliklar (feyk axborotlar) hajmi ham ortib bormoqda. Bu holat nafaqat ijtimoiy ongga, balki siyosiy jarayonlar, sog'liqni saqlash, xavfsizlik kabi sohalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada aynan shu texnologiyalarning samaradorligi va ularda duch kelinayotgan muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Feyk xabarlar, axborot erkinligi prinsipi, deep-fakes, kiberjinoyatchilik, kiberxavfsizlik tashkilotlari, media-savodxonlik, ijtimoiy tarmoq, kommunikatsiya.

Абстрактный. В последние годы, наряду с ростом популярности социальных сетей, увеличился и объём распространяемых через них фейковых новостей (поддельной информации). Эта ситуация негативно влияет не только на общественное сознание, но и на такие сферы, как политические процессы, здравоохранение и безопасность. В данной статье анализируется эффективность этих технологий и проблемы, с которыми они сталкиваются.

Ключевые слова: Фейковые новости, принцип свободы информации, глубокие фейки, киберпреступность, организации кибербезопасности, медиаграмотность, социальные сети, коммуникация.

Abstract: In recent years, along with the popularity of social networks, the volume of fake news (fake information) spread through them has also increased. This situation has a negative impact not only on social consciousness, but also on areas such as political processes, health care, and security. This article analyzes the effectiveness of these technologies and the problems they face.

Key words: Fake news, freedom of information principle, deep-fakes, cybercrime, cybersecurity organizations, media literacy, social media, communication.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Raqamli kommunikatsiyalar va ijtimoiy tarmoqlar XXI asrda axborot olishning eng asosiy manbalaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, bu platformalar orqali feyk yangiliklar deb ataluvchi noto'g'ri yoki yolg'on axborotlarning tarqalish tezligi va ko'lami ham ortib bormoqda. Soxta yangiliklar jamiyatda noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga, ijtimoiy tanglikka va ishonch inqiroziga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bunday axborotlarni aniqlash texnologiyalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Fikr erkinligi – insonning asosiy huquqlaridan biri. O'z nuqtai nazarini ifoda etish va erkin gapirish jamiyatdagi o'zgarishlar uchun muhimdir. So'z erkinligisiz



hech qanday huquqlarga erishish mumkin emas. Ammo bu kabi holatlar fikr erkinligiga kirmaydi, soxta va uydirma ma'lumot to'qib, o'zgani haqoratlashdan boshqasi emas. Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarining xolis va adolatli, tezkor va aniq bo'lishi uchun qat'iy qoidalar mavjud. Misol uchun Konstitutsiyasida so'z erkinligiga bo'lgan huquqni quyidagi hollarda istisno qiladi: odobsizlik, ustidan kulish (bulling), tuhmat (uydirma, bo'xton), bolalar pornografiyasi, yolg'on guvohlik berish, shantaj, noqonuniy harakatlarga da'vat qilish, haqiqiy tahdid va jinoyatlarga da'vat qilish.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Ijtimoiy tarmoqlar asrida tarmoq foydalanuvchisi qarshisida haqqoniy axborotni yolg'onidan ajratish masalasi dolzarb bo'lib turibdi. Gap faqat noaniq fakt va ma'lumotlar to'g'risida emas, balki avval boshdan biron maqsadni ko'zlab ataylab to'qilgan yolg'on xabarlar, ya'ni feyklar haqida bormoqda. Quyida feyklarni aniqlashga doir ko'rsatmalar berib o'tiladi.

1. Soxta yangiliklarni aniqlash texnologiyalari:

1.1. **Sun'iy intellekt (AI) va mashinaviy o'rganish (ML):** Matnni semantik va stilistik tahlil qilish orqali yolg'on axborotni aniqlashga qaratilgan algoritmlar ishlab chiqilgan. Natural Language Processing (NLP) yordamida matnlardagi emotsional ifodalar, real faktlarga moslik, mualliflik uslubi aniqlanadi.

1.2. **Deep learning va neyron tarmoqlar:** Katta ma'lumotlar bazasini tahlil qilishga asoslangan konvolyutsion va rekurrent neyron tarmoqlar yordamida axborotning haqqoniyliigi aniqlanadi. Ushbu tizimlar vizual kontent (foto va video) tahlilida ham foydalaniladi.

1.3. **Vizual kontentni aniqlash texnologiyalari:** Deepfake videolar va fotoshop orqali o'zgartirilgan tasvirlar metama'lumotlar (metadata), piksellar darajasida tahlil, va izohlar asosida aniqlanadi.

1.4. **Fact-checking platformalari bilan integratsiya:** Facebook, Twitter, va Instagram kabi platformalar tashqi manbalar bilan hamkorlikda feyk yangiliklarni avtomatik belgilar bilan ajratib ko'rsatadi.

Feyklar qanday ta'sir qiladi va ta'sir ko'lami qanday ?

Feyklar ichki va tashqi siyosatga ta'sir o'tkazadi, xususan, mamlakatlararo ziddiyatlarni kuchaytiradi, saylovchilarni va davlat miqyosida muhim qarorlar qabul qiluvchi shaxslarni chalg'itadi, oddiy insonlarning kundalik maishiy hayoti va ruhiy xotirjamligiga putur yetkazadi.

Fikrimiz isbotiga quyidagi ikki misolni keltiramiz: ***1-keys.*** Washingtonda otishma. 2016 yil Xillari Klinton xonimning yosh bolalarni jinsiy ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotga aloqadorligi haqidagi yolg'on xabarga ishongan 28 yashar shaxs Comet Ping Pong pitsseriyasiga to'pponcha bilan kirib



keladi va muassasa sohibini ham shu tashkilotga a'zo degan gumonda unga qarata o'q uza boshlaydi. Yaxshiki, bunda hech kim jiddiy zararlanmadi.

2-keys. 2016 yilning dekabrda Pokiston mudofaa vaziri Xavoja Asif o'zining Twitter sahifasida «Isroil Islomobodga yadro quroli bilan po'pisa qildi, ammo Tel-Aviv Pokistonda ham yadro quroli borligini unutmasin» degan mazmunda tvit yozib qoldirdi. Vazir AWD News saytida e'lon qilingan feyk xabarga ishonib bu tvitni yozgan edi. Isroil mazkur xabar yolg'on ekanini isbotlash uchun ancha ovora bo'ldi. Birgina yolg'on xabar mamlakatlararo siyosiy inqirozga sabab bo'layozdi.

TADQIQOT NATIJALARI

Ko'rinib turganidek, yolg'on xabarlarga hokimiyatda katta vakolat va kuchga ega insonlar, saylovchilar, kasallarni davolovchi vrachlar, umuman, muhim qarorlar qabul qiluvchi insonlar ishonib qo'yishlari mumkin. Bu esa juda jiddiy oqibatlariga olib kelishini taxmin qilish qiyin emas. Bugungi kunda feyklardan kelayotgan xavf ko'lamini to'g'ri baholab, ularga qarshi davlat miqyosida kurashish tendensiyasi dunyo davlatlari orasida tobora rivojlanib borayotganini ko'rish mumkin.

Jahonda sodir bo'layotgan urushlar, diniy va milliy ziddiyatlar, ichki siyosiy nizolarning barchasining asosida yolg'on xabarlar yotib, ularni kelib chiqishiga turtki bo'ladi. Feyk xabarlarni tarqatishdan asosiy maqsad e'tiborni tortish, yolg'on xabarlarga foydalanuvchilarni ishontirish, jamiyatda amaldagi hukumatga nisbatan ishonchsizlikni hosil qilish. Bu biz ahamiyat bermayotgan mayda ammo asorati katta bo'lgan muommalardan biridir. Sababi hozirgi kunda aholining 51 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi 2020 yil iyul oyidagi ma'lumotlariga ko'ra, 3,96 milliard kishi (dunyo aholisining 51%) ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. O'zbekistonda 2020 yil yanvar oyida bu ko'rsatkich 3,2 million kishiga etdi. 2018-yil boshida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlanirish vazirligi bergan ma'lumotiga binoan O'zbekistonda Internetdan foydalanuvchilar soni 20 milliondan oshgan. Ijtimoiy tarmoqlarning (Facebook, Instagram, Telegram) faol kundalik auditoriyasi 1,6 mln foydalanuvchini tashkil etadi.

Har qanday noto'g'ri xabar feyk bo'ladimi ?

-Yo'q, har qanday noto'g'ri ma'lumot ham feyk bo'lavermaydi. Bunda ushbu ma'lumotning kelib chiqishi va uni tarqatishdan ko'zlangan maqsad muhim rol o'ynaydi. Feyklarning oddiy jurnalistlik xatolaridan farqi shuki, ular avval boshdanoq ma'lum manfaatlarni ko'zlab, ataydan to'qib chiqariladi va tarqatiladi. Shu sababli ham jahon tajribasida yolg'on axborot tarqatganlik uchun javobgarlik aynan «avvaldan bila turib ataydan tayyorlash va tarqatish» holatlariga nisbatan tatbiq etilishi alohida ta'kidlab o'tilgan. Ya'ni axborot tarqatuvchining noto'g'ri ma'lumotni tarqatishda uning noto'g'ri ekanini bilishi va bundan biron manfaat-maqsad ko'zlagani isbotlanishi lozim. Olaylik, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi u



yoki bu ma'lumotning rostligiga ishonib, uni o'z sahifasida ulashsa, bu huquqbuzarlik emas, biroq ma'lumotning yolg'onligini bilib turib uni yaratsa va/yoki uni tarqatishda ishtirok etsa, huquqbuzarlik deb qaraladi. Bunda tarqatilgan ma'lumotning feyk yoki xato deb tan olinishini mansabdor shaxs emas, sud hal qiladi.

XULOSALAR

Xo'sh, O'zbekistonda bunga nisbatan qanday chora tadbirlar ko'rilyapti ? O'zbekiston uchun soxta xabarlar mavzusi nima uchun muhim?

Butun dunyoda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham ijtimoiy tarmoqlar allaqachon jamoatchilik fikrini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan virtual makonga aylandi.

Afsuski, bunda ta'sir usullari va vositalari doim ham qonuniy, to'g'ri va maqsadga muvofiq tanlanmayapti. Yuqorida biz feyklarning turli maqsadlar yo'lida qo'llaniladigan yuqori samarali, ammo oqibatlarini taxmin qilish mushkul bo'lgan vosita ekanini aytib o'tdik. Masalaga bugun ijtimoiy tarmoqlar o'zbek segmenti misolida qarajak, muammolarni yanada aniq ko'ramiz. Masalan, yerqalampirni koronavirusga davo degan feyk ortidan moddiy foyda ko'rishdan tortib u yoki bu amaldorni «o'ldi-qamaldi»ga chiqarib, asossiz xavotir uyg'otish orqali omma ongini manipulyatsiya qilishga urinishgacha.

Yuqorida qayd etilgan texnologiyalar samaradorligiga to'xtalsak:

- ✓ AI asosidagi tizimlar ingliz tilida 80–90% aniqlik bilan feyk axborotni aniqlay oladi;
- ✓ Real vaqtli monitoring tizimlari (masalan, CrowdTangle) ijtimoiy tarmoqlarda ommaviylashayotgan kontentni kuzatib boradi;
- ✓ Ko'p tillilikni qo'llab-quvvatlovchi tizimlar xalqaro feyk axborot oqimini to'xtatishga xizmat qiladi.

Muammolar va cheklovlar:

- ✓ **Kontekst yetishmasligi:** AI unga taqdim etilayotgan axborotning kontekstini to'liq anglamagan holatlarda xatoliklar yuzaga keladi.
- ✓ **Til va madaniyatga xoslik:** O'zbek tili va boshqa kam tarqalgan tillarda feyk aniqlash tizimlari hali to'liq shakllantirilmagan.
- ✓ **E'tiborni chetlab o'tish strategiyalari:** Soxta axborotlar hazil yoki shaxsiy fikr sifatida taqdim etilishi orqali aniqlovchi tizimlarni chalg'itishi mumkin.
- ✓ **Huquqiy va etik masalalar:** Noto'g'ri belgilangan axborot so'z erkinligini cheklab qo'yishi yoki foydalanuvchining shaxsiy daxlsizligini buzishi mumkin.

Xulosa o'rnida yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, shuni aytish kerakki, soxta yangiliklar, so'nggi yillardagi raqamli asrning mahsuloti bo'lib, insoniyatning ikkinchi hayoti hisoblangan ijtimoiy tarmoqlarning buzg'unchisiga



aylandi. Bunda oddiy axborot mahsulotlarini iste'molchisi nima haqiqat va nima yolg'on ekanligini aniqlay olmaydi (va ba'zan istamaydi). Soxta yangiliklarni aniqlash texnologiyalari axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Ularning samaradorligi ortib borayotgan bo'lsa-da, hali mavjud muammolar ularni universal yechim sifatida qabul qilishga imkon bermaydi. Texnologik yondashuvlar bilan birga, media savodxonlik, huquqiy mexanizmlar va mahalliy sharoitga moslashtirilgan AI tizimlarni rivojlantirish feyk axborotlarga qarshi kurashda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. FactCheck.org. (2022). What is fake news? Retrieved from <https://www.factcheck.org>
2. Lazer, D. (2018). The science of fake news. *Science*, 359(6380), 1094–1096. <https://doi.org/10.1126/science.aao2998>
3. Shu, K., Sliva, A., Wang, S., Tang, J., & Liu, H. (2017). Fake news detection on social media: A data mining perspective. *ACM SIGKDD Explorations Newsletter*, 19(1), 22–36. <https://doi.org/10.1145/3137597.3137600>
4. Snopes.com. (2023). How to spot fake news. Retrieved from <https://www.snopes.com>
5. Ubaydullayeva, M. (2022). *Mass media and information attacks: Their impact on public consciousness* [in Uzbek]. Tashkent: Uzbekistan National Encyclopedia Publishing House, 45–48.
6. Vosoughi, S., Roy, D., & Aral, S. (2018). The spread of true and false news online. *Science*, 359(6380), 1146–1151. <https://doi.org/10.1126/science.aap9559>
7. Wardle, C., & Derakhshan, H. (2017). *Information disorder: Toward an interdisciplinary framework for research and policymaking*. Strasbourg: Council of Europe.

